

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

**Boshlang‘ich sinf darslarida axborot texnologiyalaridan**

**foydalanishning o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun ahamiyatli jihatlari tahlili**

***Eshboyeva Guzal Isroil qizi***

***Osiyo xalqaro universiteti***

***1-bosqich magistranti***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun ahamiyatli jihatlari tahlili naqadar ahamiyatli ekanligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, mazkur mavzu yuzasidan bir qancha adabiyotlar tahlil qilindi. Maqola so‘ngida mavzu yuzasidan xulosa va takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, kompyuter, multimedia, taqdimot, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, samaradorlik, ko‘nikma, malaka, metod, interfaol, individual.

**Abstract:** This article provides information on how important it is to analyze the importance of the use of information technologies for teachers and students in elementary school classes. Also, some literature on this topic was analyzed. At the end of the article, conclusions and suggestions are given.

**Key words:** primary education, computer, multimedia, presentation, information and communication technologies, efficiency, skill, competence, method, interactive, individual.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о том, насколько важно проанализировать важность использования информационных технологий для учителей и учащихся в классах начальной школы. Также была проанализирована некоторая литература по данной теме. В конце статьи даны выводы и предложения.

**Ключевые слова:** начальное образование, компьютер, мультимедиа, презентация, информационно-коммуникационные технологии, эффективность, умение, компетентность, метод, интерактив,

Yangi O‘zbekistonning kelajagi yosh avlod qo‘lida ekanligi hech kimga sir emas albatta. O‘zbekiston Respublikasida umumiyligi o‘rta va maktabdan tashqari ta‘lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida 2019-yil 29-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5712-sonli “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi [1].

O‘qitish metodikasi o‘qituvchi va o‘quvchilarning ta‘lim jarayonidagi faoliyatini, o‘qitish jarayonini qanday tashkil etish va o‘tkazishni, bu jarayonda o‘quvchilar qanday harakatlarni amalga oshirishi kerakligini belgilaydi.

Ta’lim usullari tasnifi ko‘plab olimlar tomonidan turlicha bayon etilgan:

I.Y.Lerner va M.N.Katkin o‘qitish usullarini bir-biridan quyidagicha ajratib ko‘rsatadi:

- tushuntirish;
- reproduktiv usul;
- muammoli bayon qilish usuli;
- qisman izlanish usuli;
- tadqiqot usuli.

S.I.Perovskiy va Y.Y.Golantlarning tasnifiga ko‘ra:

- faol;
- passiv.

Y.KBabanskiy tasnifi bo‘yicha :

- o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;
- nazorat va o‘zini-o‘zi nazorat qilish metodlari;
- bilishga doir o‘yinlar, o‘quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag‘batlantirish, tanbeh berish va nazorat metodlari.

O‘qitish jarayonlarida noan’anaviy ta‘lim usullari: “Konferensiya darsi”,

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

seminar darsi, “Aralash sinflar”, “O‘yinchoqlar bilan o‘qitish”, “Kasbga oid o‘qitish”, “Badiiy adabiyot” o‘rganish va tahlil qilish”, “Evrika (ixtiro)”; qiziqarli faol ta’lim usullari: “Kichik va katta guruhlarda ishlash”, “Rolli o‘yinlar”, “Sahna manzarasi”, “Krossvordlar yechish”, “Aql-idrok savollari”, “test topshiriqlari”, “Turli tarqatma materiallardan foydalanish”, “Sinkvey o‘yinlari” hamda ta’limning innovatsion (yangi) usullari: “O‘zgartirilgan ta’lim”, “Improvizatsiya”, “Aqliy hujum”, “Munozara”, “Taqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi usul”, “Klaster usuli”, “Muammoli vaziyat”, “O‘ziga xos quyidagi tamoyillarni qo‘llash muhim: vaziyatni tahlil qilish”, “Har kim hammani o‘rgatadi”, “Fikrga ega bo‘lish”, “Multimedia vositalaridan foydalanish” va boshqalar.

Boshlang‘ich sinflarda o‘yin usullari, interfaol usullar, modulli texnologiyalar, darsning noan’anaviy shakllari, fanlararo integratsiyadan foydalanish mumkin. Bu usullarning barchasi bolalardan mustaqil ishlashni, o‘z fikrini erkin ifoda etishni, keng fikrlashni talab qiladi. Ta’lim sifatini oshirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy salohiyati va bilim darajasi, zamonaviy ta’lim usullarini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, o‘qituvchilar tomonidan an’anaviy o‘qitish tizimi uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalaridan, ta’lim tizimi saytlarida berilgan uslubiy tavsiyalardan foydalanish darajasi haligacha anchagina past ko‘rsatgichlarda. Shu bois o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan ta’lim uslublari va vositalarini, o‘qitish jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Boshlang‘ich sinflarda tafakkurning operativ uslubini shakllantirishda informatika kursining o‘rni juda katta. Informatikaning bu roli harakatlar tarkibini rejalashtirish, axborotni izlash, aloqani rejalashtirish, axborot modellarini yaratish, vositachilik faoliyati kabi boshlang‘ich ko‘nikma va malakalar yig‘indisi sifatida qaraladi. Kompyuterni o‘qishda yordamchi, ijodkorlik, o‘zini namoyon qilish va rivojlantirish vositasi sifatida tushunish muhimdir. Boshlang‘ich sinflarda kompyuterni o‘zlashtirgan o‘quvchilar undan boshqa sinflarda o‘z faoliyatida vosita sifatida foydalanishlari mumkin. Kompyuterdan foydalangan holda

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

o'tkaziladigan darslar ular uchun qiyinchilik tug'dirmaydi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarining o'qituvchi va o'quvchi uchun quyidagi ahamiyatli jihatlari mavjud:

- ✓ o'quvchining diqqatini jamlash;
- ✓ ma'lumot to'g'risidagi tasavvurni kengaytirish;
- ✓ izlanuvchanlik, ijodkorlik va mustaqil faoliyatga kirishish;
- ✓ o'z-o'zini baholash.

O'qituvchi faoliyatida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holdagi darslarning o'rni quyidagilarda aks etadi:

- ✓ vaqt ni to'g'ri taqsimlash;
- ✓ o'quv materiali mazmun-mohiyatining yorqin va ishonarli bo'lishini ta'minlash;
- ✓ berilayotgan axborot ko'lамини oshirish;
- ✓ o'quv topshirig'ining turlarini kengaytirish;
- ✓ sog'lom raqobat, ijodiy muhitni yuzaga keltirish;
- ✓ kasbiy malakani muntazam oshirib borish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni dars jarayonidagi qiziqarli olamga olib kirishda o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda o'quvchilar mustaqil ravishda axborot izlaydi, tahlil qiladi va boshqalarga yetkazadi. O'quvchini axborot bilan ishlashga hamda o'qishga o'rgatish zamonaviy boshlang'ich ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari shakllantiriladi.

O'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil etishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan keng foydalanish, birinchi navbatda, turli hisobotlar tayyorlash, sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazish va hokazolardan iborat bo'ladi.

Xulosa ornida aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrashiga, ijodiy izlanish va mantiqiy tafakkurini kengaytirishga, darsda olgan

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

bilimlarini hayot bilan bog'lashga, darsga qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Ana shunday zamonaviy talablar asosida o'qituvchilar tomonidan yaratilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanish, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish ta'lim jarayoni sifatini kafolatlaydi. Aytish joizki, multimedia dasturlarini har bir darsda qo'llash natijasida o'quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash rivojlanadi. Yana shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish dars sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mustaqillik yillarida ta'lim sohasi tubdan yangilanib, o'qitishning ilg'or uslub va usullarini amaliyatda qo'llash borasida katta tajriba to'plandi. Bugun zamon jadal rivojlanmoqda. Binobarin, umumta'lim fanlarini o'qitishga zamon talablaridan kelib chiqib yondashish, ta'limda eng ilg'or texnologiyalardan foydalanish zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmoni
2. A.Musurmanova va boshqalar. Umumi pedagogika – Toshkent. Innovatsiya – Ziyo.2020.-194-bet
3. O'.Q.Tolipov va M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari – Toshkent. Fan. 2006.-260 bet